TALABALAR MALAKAVIY AMALIYOTINI TASHKIL ETISHNING SAMARALI SHAKL VA METODLARI

Ergashev Rustam Nadjimovich
Guliston davlat pedagogika instituti
professori v.b., ped. fan. nomzodi
e-mail: ergashev@mail.ru
Qulmamatov Sindorqul Ibragimovich
Guliston davlat pedagogika instituti
dotsenti, ped. fan. nomzodi

Annotatsiya: Talabalar malakaviy amaliyotiga qo‘yilayotgan zamonaviy talablar, uning mazmuni va vazifalari, uni samarali tashkil etish shakl va metodlari, talabalar faoliyatini nazorat qilish va baholash mezonlari haqida so‘z boradi. Ushbu masala yuzasidan professor-o‘qituvchi va amaliyotchi talabalar uchun uslubiy tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: malakaviy amaliyot, 4+2 shaklidagi malakaviy amaliyot, malaka talablari, amaliyotchiga qo‘yiladigan talablar, kasbiy kompetentsiya, amaliyot natijasi, baholash mezonlari.

Abstract: It is about the modern demands placed on students' professional practice, its content and tasks, forms and methods of its effective organization, criteria for monitoring and evaluating students' activities. Regarding this issue, methodical recommendations are given for professors and practicing students.

Key words: *qualified practice, 4+2 form of qualified practice, qualification requirements, requirements for the practitioner, professional competence, practice result, evaluation criteria.*

Bo‘lajak pedagog kadrlarda kasbiy kompetentsiy, nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalarni shakllantirish oliy o‘quv yurtida ta’lim jarayonini xalqaro standart talablari asosida tashkil etishni, ularning o‘quv fanlaridan o‘zlashtirgan nazariy bilimlarini amaliy jarayonlar bilan integratsiyalash bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir. Ushbu natijaga erishishda talabalarning malakaviy amaliyotlari muhim o‘rin tutadi. [1]

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 7-avzustdagi 344-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan DTS va Malaka talablari asosida barcha pedagogik ta'lim yo‘nalishlarida talabalarning ikki xil turdagi malakaviy amaliyotlari tashkil etiladi:

1. **Malakaviy amaliyot** – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg‘unlashtirish, tegishli amaliy ko‘nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi;

2. **4+2 shaklidagi malakaviy amaliyot** – kunduzgi ta' lim shaklida tahsil oluvchi talabalarning 3,4,5,6,7,8 semestrlarida amalga oshiriladi. Bunda talabalar bilan haftaning 4 kunida nazariy va amaliy ta'lim, 2 kunida esa amaliyot o‘tkaziladi. [2]

Uzluksiz malakaviy amaliyot natijasida talaba:

- ijtimoiy va kasbiy vazifalarni hal etishda umumkasbiy va mutaxassislik fanlarning asosiy qoidalari va metodlaridan samarali foydalana olish;
- ona tilida o‘z fikrlarini tizimli va erkin bayon etish, ilmiy matnlar bilan ishlash, ommaviy nutq so‘zlash uchun ona tili va cheł tillaridan birida yozma va og‘zaki nutq**;**
- axborotni olish, saralash, saqlash va qayta ishlash metod, usul va vositalaridan foydalanish va media savodxonlik;
- global kompyuter tarmoqlar bilan ishlash;
- ilmiy tadqiqotlarni tashkil etish, ilmiy bilish yutuqlariga erishish tamoyillarini anglab yetish;
- o‘quvchilarda gigiena, mehnat muhofazasi va tashqi ta'sirlardan himoya qilish qoidalari talablariga muvofiq, sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarini shakllantirish;
- o‘quv-tarbiya jarayonini modellashtirish va uni ta'lim amaliyotiga tatbiq etish;

- ta'lim jarayoni sub'ektlarining hamkorlikdagi faoliyati va shaxslararo o‘zaro harakatini tashkil etish usullarini qo‘llay olish;

- kasbiy vazifalarni hal etishda fanlararo bog‘liqlikni amalga oshirish, shuningdek, nazariya va amaliyot uyg‘unligini, uzviylik va uzluksizligini ta'minlash;

- tanqidiy fikrlash metodikasini o‘zlashtirish;

- o‘quvchilarda vatanparvarlik, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas'uliyatlilik, bag‘rikenglik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik kabi ko‘nikmalarni shakllantirish;

- inklyuziv ta'limda qadriyatli munosabatni tarkib toptirish, uzoq vaqt davolanishga muhtoj o‘quvchilar bilan ishlash (gospital pedagogika) texnologiyalarini o‘zlashtirish;

- ta'lim oluvchilarga o‘zgaruvchan mehnat bozori talablariga moslashuv-chanlikka doir kompetensiyalarni rivojlantirish va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish qobiliyatliyati, ko‘nikma va malakalariga ega bo‘ladi.

Ta’lim yo‘nalishi talabalarining malakaviy amaliyotlari quyidagi **(**4 yoki 3**)** bosqichlarda amalga oshiriladi: tanishuv malakaviy amaliyot (1 kurs), 4+2 tartibidagi o‘quv malakaviy amaliyot (2 kurs), 4+2 tartibidagi passiv pedagogik amaliyot (3 kurs), 4+2 tartibidagi faol pedagogik amaliyot (4 kurs).

Malakaviy amaliyot talabalarning o‘z kasbiga bo‘lgan qiziqishini yanada oshirish, umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan o‘zlashtirgan nazariy bilimlarini mustahkamlash va ularni amaliy jarayonlar bilan uyg‘unlashtirish, kasbiy pedagogik kompetensiya, ko‘nikma va malakalarini shakllantirishga qaratiladi.

Malakaviy amaliyotning har bir bosqichi uchun alohida dastur ishlab chiqilib, ularning mazmuni, amaliyot rahbari va talabalarga qo‘yiladigan talablar kursdan kursga ortib boradi.

Dastlabki o‘quv yilining birinchi bosqichida talabalar umumiy o‘rta ta’lim maktabining rahbar xodimlari va ixtisoslik fan o‘qituvchisining lavozim vazifalari, ta’limni tashkil etilishning o‘quv-me’yoriy xujjatlari, o‘quv fan dasturi, uning sinflar va choraklar kesimidagi mavzulari, darsning texnologik xaritasi va uning didaktik ta’minoti, dars beruvchi o‘qituvchisining kundalik faoliyati va kasbiy mahorati, o‘quvchilarning dars jarayonidagi faolligi, ongli ishtirok etishi, sinf rahbarining tarbiyaviy ish faoliyati, sinfdan va maktabdan tashqari olib boradigan tarbiyaviy ishlar rejasi, uni tashkil etish shakl, vosita va metodlari bilan yaqindan tanishadilar.

Malakaviy amaliyotning keyingi bosqichlarida talabalarning faolligi yanada ortadi. Amaliyotni hamkorlikda tashkil etish shakllari va ularda olib boriladigan ishlar xajmi murakkablashadi. Yuqori kurs talabalari mustaqil ravishda dars ishlanmalarini tuzish, darslarga zamonaviy didaktik talablar asosida tayyorgarlik ko‘rish va hattoki ularni o‘tishga kirishadilar[3].

Maxsus ishlab chiqilgan amaliyot mezonlari asosida talabalarning malakaviy amaliyot jarayonida erishgan natijalari joriy, oraliq va yakuniy nazorat shaklida baholab boriladi.

Talabalarining 4+2 shaklidagi malakaviy amaliyotlari haftaning 4 kunida nazariy va amaliy mashg‘ulotlar, 2 kunida esa amaliyot o‘tkaziladi. Usbu malakaviy amaliyot talabalarining oliy ta’lim muassasasida umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan o‘zlashtirgan nazariy bilimlarni mustahkamlash va ularni amaliy jarayonlar bilan uyg‘unlashtirish, bo‘lajak o‘qituvchilarda zaruriy pedagogik kompetensiyalar, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

Ta’lim yo‘nalishi talabalari malakaviy amaliyotning har bir bosqichida o‘z shaxsiy ish rejasiga ega bo‘lib, unda belgilangan vazifalarni o‘z vaqida bajarishlari amaliyot rahbari tomonidan nazorat qilib boriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8-октябрdagi “Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasi to‘g‘risida”gi PF-5847-son Qarori – T., 2019

2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 7-avzustdagi 344- sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan bakalavriat ta'lim yo‘nalishining Malaka talablari. -T., 2023 yil

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 noyabrdagi “Zamonaviy maktablarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. –T., 2019

4. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi O‘RQ-637-son Qonuni. –T., 2020 yil, 23 sentyabr.